

PAPER

JALOLIDDIN RUMIY BASHARIYAT SHOIRIDIR

Allayarov Doniyor Islom o'g'li ¹

¹Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

* allayarov@inbox.ru

Abstract

Ushbu maqolada buyuk mutafakkir va so'fiy shoir Jaloliddin Muhammad ibn Bahouddin Valad – Rumiyl shaxsiyati, taxalluslari, nasl-nasabiga oid turli qarashlar va xalqaro bahs-munozaralar tahlil etiladi. Rumiyl asarlari, yashagan davri va hududlari hamda uning ijodiy merosiga turli xalqlarning egalik qilish masalasi yoritiladi. Shuningdek, uning otasi Bahouddin Valad va oilasi haqidagi tarixiy manbalar, Rumiyl ijodida yunon falsafasi, islomiy irfoniy meros hamda fors adabiy an'analarning o'rni o'z aksini topadi. Maqolada Rumiyl shaxsini bir xalq yoki millat vakili sifatida emas, balki butun bashariyatniki ekanini ilgari suruvchi qarashlar ham tahlil qilinadi.

Key words: Jaloliddin Rumiyl, Balxiyl, Mavlaviyl, Rumiyl taxallusi, tasavvuf, fors adabiyoti, Bahouddin Valad, Shams Tabriziyl, Masnaviyl ma'naviyl, YUNESKO, so'fiylik, milliy mansublik bahslari.

Kirihs

Mavlonol Jaloliddin Muhammad ibn Bahovuddin Valad al-Balxiyl Rumiyl nomi bilan jahonga dong taratgan allomaning taxallusi borasida ham fan olamida bir qator gipotezalar mavjud. Mavlonol tug'ilgan joyi nisbatiga ko'ra "Balxiyl", do'sti Shams Tabriziyl xotirasiga "Tabriziyl" va yashash makoniga ko'ra "Rumiyl" taxalluslari ostida ijod qildi. Bu nomlar orasida esa u ko'proq Rumiyl taxallusi bilan mashhur bo'ldi. Asli Markaziyl Osiyolik Jaloliddin Rumiyni afg'onlar Balxiyl, forslar Mavlaviyl, turklar esa Rumiyl deb ardoqlashadi. Bugungi kunda turli xalq va millatlar o'rtasida Rumiyl shaxsi bo'yicha ko'plab bahs-munozaralar

davom etmoqda. Eronliklar va turklar, arablar va afg'onlar orasida bo'layotgan bahslarning sababi ularning har biri Jaloliddin Rumiyl bizning buyuk ajdodimizdir degan mavzu atrofida muzokaralar olib bormoqdalar. Arablarning da'vosiga ko'ra, Rumiylning ota-ona avlodi Muhammad (s.a.v.) va xalifa Abu Bakr shajarasiga borib taqaladi, shu bois, u arablar avlodidandir. Ularning bu da'vosi bo'yicha tarixiy argumentlar yetarli. Afg'onlarning da'volari ham birmuncha asosli dalillarga tayangan. Rumiyl hozirgi Afg'onistonning Balx shahrida tug'ilgan va shunga nisbat bergan holda Balxiyl taxallusi bilan ham ijod qilgan degan fikrni ilgari surmoqdalar. Shaxs va buyuk so'fiy shoir sifatida Jaloliddin Rumiyl

Compiled on: October 18, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](#).

fors madaniy va adabiy an'alariga tayangan holda asosan forsiy tilda ijod qilgan, uning deyarli barcha asarlari fors tilida yaratilganligi jihatidan eronliklar ham Rumiylarning ajdodimizdir degan gipotezani ilgari suradilar. Jaloliddin Rumiylarning hayotining asosiy qismini Kichik Osiyoda, ya'ni Rumda o'tkazdi va shunga nisbat olgan holda Rumiylarning taxallusini olib, dunyo bo'yicha hozirda asarlari eng ko'p o'qiladigan va o'rganiladigan so'fiy shoir sifatida dong taratdi. Rumiylarning taxallusi uni umr bo'yi shu mamlakat tarixi va madaniyati bilan bog'lab turdi. U O'rta asrlardagi bir qator falsafiy oqimlarning taraqqiy etishiga ham sezilarli tarzda o'z ta'sirini o'tkazdi. Forsiylar uni o'zlarining buyuk shoiri deb ataydilar, turklar esa turk adabiyotining asoschisi deb ulug'laydilar.

Rumiylar – "rumlik", "rumdan" degan ma'nolarni bildiradi. Rumiylar o'z taxallusiga Rum saltanatining nomini asos qilib olgan, degan qarashlar ko'p e'tirof etiladi. Biroq, Rumiylarning so'zining son ekvivalentlari yig'indisi 256 ga teng kelishini e'tiborga olsak, bu "Nur" so'zining ma'nosi ildiziga mos kelishi ma'lum bo'ladi. Arab, eron va o'zbek tillarida ushbu ildiz "yorug'lik" so'zining ma'nosini beradi[1].

Jaloliddin Rumiylarning qaysi millat vakili ekanligi xususidagi bahslarga 1952 yilda pokistonlik olim, professor Hamidullo Xon: "Rumiylar bir xalqqa tegishli emas. U bashariyat shoiridir", deya yakun yasamoqchi bo'ladi, ammo hali-hanuz turli millat va elat vakillari o'rtasida Rumiylar asli qaysi xalq vakili ekanligi to'g'risidagi munozaralar tugagani yo'q. Zero, Bake Muan aytganidek: "Rumiylarning hayotining o'zi ajoyib ramziy ma'noga ega: afg'onlar, forsiygo'ylar, turkiylarni birlashtirish bilan birga ushbu xalqlarni boshqa xalqlar bilan birlashtirishga muvaffaq bo'lgan zotdir. Qanday qilib deysizmi? Axir ularning barchasi Rumiylar bizniki degan fikrdadirlar".[2] 2007 yil YUNESKO tashkiloti tomonidan Rumiylar yili deb e'lon qilindi va jahon miqyosida keng nishonlandi. Bu tadbirlar bo'yicha xalqaro tashkilotning murojaatnomasida esa shunday satrlar keltirilgan: "Rumiylar islom sivilizatsiyasining eng ulug' mutafakkiri va olimi bo'lib qoladi. Afg'oniston, Eron va Turkiya xalqlari uni o'z shoirilari deb hisoblaydilar. U esa butun insoniyatga murojaat qiladi va barchani Pok Parvardigor soyasida birlashtirishga chaqiradi... Uning o'zi aytganidek: "men uchun oshnolaru begonalar, qarindoshu qarindosh bo'lmaganlar orasida farq yo'q".

Jaloliddin Rumiylarning ota ajdodi shajarasi ham, ona ajdodi shajarasi ham muqaddas ildizlar shajarasiga tutashadi. Otasi Muhammad ibn Husayn ibn Ahmad Xatib Bahovuddin Valad bo'lib, uning ajdodlari Muhammad (s.a.v.) vafotidan keyin birinchi xalifa etib tayinlangan Abu Bakr Siddiq (r.a.)ga borib taqaladi. Onasi Mo'mina xotun esa Xorazmlik sayyidalardan bo'lib, nasabi Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga borib taqaladi. Roziuddin Nishopuriylarning xabar berishicha, Rumiylarning bobosi – Husayn bin Ahmad Xotibiy ham o'z davrining taniqli ulamolardan sanalgan, buvisi Malikai Jahon Xorazmshohlar xonadoni vakilasi bo'lgan. Alisher Navoiylarning o'zining "Nasoyim-ul muhabbat" asarida yana bir qiziq ma'lumotni keltirib o'tadi: "Hazrat Rasululloh (s.a.v.) Xorazmshohning tushiga kirib ishorat qildilarki, qizingni Husayn Xatibga nikoh qil! Bu nikohdan Bahovuddin Valad dunyoga keldi. U 2 yoshida otasi olamdan o'tdi. Balog'at yoshiga etganda din va irfonga oid bilimlarni chuqur o'zlashtirdi. Ilmda kamoli ul erga etdiki, Hazrat Rasululloh (s.a.v.) tushida unga Sulton-ul ulamo (Olimlar sultoni) laqabini berdilar"[3]. O'z davrining ulug' donishmandi hisoblangan Bahovuddin Valadni "Sulton-ul orifiyn" deb ham atashganlar. Bahovuddin Valad o'z davrining yirik ulamosi va voizi bo'libgina qolmay, Xorazmshohlar saroyining ham xos kishilaridan hisoblangan. Uning "Maorif" nomli asari o'sha paytlarda juda mashhur bo'lgan. Bahovuddin Valad Najmiddin Kubroning muborak qolidan muqaddas xirqani kiyib, shayxdan muhrli ijoza olgan va o'z davrining yirik fiqh ilmi bilimdoni, fatvo sohibi hamda kubraviya tariqatining shayxi sifatida ham shuhrat qozongan. Jaloliddin Muhammadning onasi 1222 yilda Karamanda xastalikdan vafot etadi. Otasi esa 1231 yilning 23 fevralida Ko'nyo shahrida 73 yoshida olamdan o'tadi.

Jaloliddin Muhammad bolaligidanoq o'ta xayolchan va ta'sirchan, ammo zehni o'tkir bola bo'lgan. U yosh bo'lishiga qaramay teran zakovati, noyob qobiliyati orqali atrofdagilar diqqatini tortgan. Jaloliddin Rumiylar 5 yoshligidayoq u bilan g'ayritabiiy hodisalar sodir bo'la boshlagan. U yoshligidanoq har 2-3 kunda iftor qilardi[4]. Uning akasi A'loddin Muhammad yoshligidan kasalmand va nimjon bo'lgan, shu sababli u 19 yoshida xastalikdan vafot etadi. A'loddin Muhammad va Jaloliddin

Muhammad tarbiyasini Bahovuddin Valadning yaqin muridlari bo'lmish samarqandlik Sharafiddin Lolo va termizlik Sayyid Burhonuddin Termiziylar zimmalariga olishgan, ularga tahsil berishgan. Quvvai hofizasi o'tkir bo'lgan Jaloliddin Muhammad 12–13 yoshlarida Qur'onni yod bilar, shariat ilmidan ancha-muncha xabardor bo'lib, arab tili grammatikasini ham yaxshi o'zlashtiradi. 10 yoshlaridanoq bir qancha ulug' shoirlarning yirik asarlarini mutolaa qila boshlaydi, goh-gohida she'rlar ham mashq qilib turadi. 16 yoshidan boshlab esa Xomush taxallusi bilan she'rlar yoza boshlaydi. Aflokiy Ahmad Dadaning qayd etishicha, otasi Bahovuddin Valad unga "Xudovandigor" nisbasini bergan va o'g'liga shunday deb murojaat qilgan. Bu so'zning lug'aviy ma'nosi esa "sarvar", "janob" degan ma'nolarni anglatib, o'sha davrlarda ma'naviy va ijtimoiy sohalarida yuksak martabaga erishgan kishilarga nisbatan "Xoja" so'zi o'rnida ishlatilgan. Jaloliddin Muhammad yoshligidanoq yunon tiliga qiziqqanligi tufayli bu tilni puxta o'rganadi, yunon tilida ravon so'zlashishni o'zlashtiradi. Keyinchalik esa buyuk yunon faylasufi Aflotun asarlarini aslyatda o'qib chiqib, antik davrlar falsafasi bilan ham yaqindan tanishadi. Oradan yillar o'tib o'zining mashhur "Masnaviyi ma'naviy", "Ichindagi ichindadir" asarlarida antik davr falsafasining yirik faylasuflari Arastu, Aflotun, Galen, Gerodot, Ezop va Geraklitlarning nomlarini, ularning falsafiy-axloqiy qarashlaridan turkum namunalarni ham keltirib o'tadi.

Xulosa

Xulosa qiladigan bo'lsak, Jaloliddin Rumi shaxsi va ijodi nafaqat bir xalq, balki butun insoniyat mulki ekanligini ko'rsatadi. U tug'ilgan joyi – Balx, yashagan davri – Rum diyori, ijod tili – forsiy, tasavvufiy ta'limoti esa butun islom olami va undan tashqariga yoyilgan. Shu bois afg'onlar uni Balxiy, forslar – Mavlaviy, turklar – Rumi deb ulug'lashadi. Rumiyning shaxsiyati va merosi turli millatlar o'rtasida birlashuv ramzi sifatida qadrlanadi. YUNESKO tomonidan 2007 yilning "Rumi yili" deb e'lon qilinishi ham uning jahon miqyosidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Uning "men uchun oshnolaru begonalar yo'q" degan da'vati bugungi kunda ham insoniyatni bag'rikenglik va birlikka chorlaydi. Demak, Rumi millat chegaralaridan yuqori turgan, butun bashariyatning

buyuk shoiridir.

Foydalangan adabiyotlar

1. Aflokiy, Ahmad Dada. *Manoqib al-orifin*. – Istanbul: 1929.
2. Alisher Navoiy. *Nasoyim-ul muhabbat*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1983.
3. Bahovuddin Valad. *Maorif*. – Qohira: 1908.
4. Bake Muan. *Rumi va tasavvuf falsafasi*. – Tehron, 1949.
5. Hamidullo Xon. *Rumi – bashariyat shoiri*. – Karachi: 1952.
6. Roziuddin Nishopuriy. *Tarix ul-ulamo*. – Tehron, 1935.
7. UNESCO. *International Celebration of the 800th Anniversary of Rumi*. – Paris, 2007.
8. Jaloliddin Rumi. *Masnaviyi ma'naviy*. – Qohira: 1925.
9. Natlib.uz
10. Google.com